



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 2 - noyabr

336-11-163-Q/22

Farg'ona tumani hokimligi

### **Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunga  
(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarito'plamlari, 2013 yil, 41-son 543-  
modda) va "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish  
to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlarito'plamlari, 2013  
yil,18-son, 233-modda) Qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasining 2017 yil 5 dekabr kunidagi«Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish  
topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha  
olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini  
belgilash va zaxiraga qo'yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari  
to'g'risida»gi 965-sonli Qaroriga asosan tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish  
topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga  
qodir bo'lmagan shaxslarni

2023 yilda ishga joylashtirish uchun ish joylarini eng kam miqdorini  
belgilash, zaxiraga qo'yish hamda qo'shimcha ish joylari yaratish maqsadida:

### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5  
dekabrdagi "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat  
bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish  
uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibini  
yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga hamda mehnat  
to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tashkilotlar — ish beruvchilarga

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (keyingi o‘rinlarda muxtojlar deb ataladi)ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish majburiyati yuklanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash hamda ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, 2023 yilda muhtojlar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida” Nizomning 2-bandiga ko‘ra quyidagi asosiy tushunchalar ma’lumot uchun qabul qilinsin:

odam savdosi qurboni — majburiy mehnat yoki xizmatlardan, qullik yoki qullikka o‘xshash urf-odatlardan, boshqa shaxs tomonidan fohishabozlikda ekspluatasiya qilishdan yoki shahvoniy ekspluatasiya qilishning boshqa shakllaridan, erksiz holatdan yoxud insonning organlari va to‘qimalari olib qo‘yilishidan jabrlangan shaxs;

nogiron — jismoniy, aqliy, psixik yoki sensor (hissiy) buzilishlar mavjudligi oqibatida hayot faoliyati cheklanishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb e’tirof etilgan va ijtimoiy yordam va muhofazaga muhtoj bo‘lgan shaxs;

pensiyaoldi yoshi — erkaklar uchun 58 yoshdan 60 yoshga to‘lishgacha va ayollar uchun — 53 yoshdan 55 yoshga to‘lishgacha pensiyaga chiqishdan oldingi yosh;

ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish — tashkilot (ish beruvchi) tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun o‘z mablag‘lari hisobiga tashkil etilgan ish o‘rinlari;

ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash — ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha

olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tashkilotning ro'yxatdagi o'rtacha xodimlari sonining foizlarida tuman hokimining qarori bilan belgilanadigan ish o'rinlari soni.

4. Muxtojlar uchun zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlariga quyidagi talablar belgilansin:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun — bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo'yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo'shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo'lgan ish o'rinlari;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo'lgan ish o'rinlari;

safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun — ularning professional tayyorgarligiga mos bo'lgan ish o'rinlari;

nogironlar uchun — mehnat sharoitlari bo'yicha attestasiyadan o'tkazilgan va xodimga ularning sog'ligi holatini va mehnat faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to'siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o'rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo'lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo'lgan mehnat sharoitlarini ta'minlaydigan ish o'rinlari.

5. Mazkur Qarorning 2-ilovasiga muvofiq muhtojlar uchun zaxiraga qo'yilgan korxonalar va tashkilotlari (keyingi o'rinlarda ish beruvchilar deb ataladi):

- yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o'rinlari zaxiraga qo'yilishi va tayyorligini ta'minlash, shuningdek bu haqida tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga axborot berishlari;

- har oyida xisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to'g'risidagi axborotni tasdiqlovchi xujjatlarini ilova qilgan holda taqdim etishlari shart;

6. Ish beruvchilar tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlari tayyorligi to'g'risida axborot taqdim etmasligi, teng darajada zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining amalda tayyor emasligi hamda muhtojlarni Aholi bandligiga ko'maklashish markazining yo'llanmasi asosida zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlariga ishga joylashtirish tashkilot tomonidan asossiz rad etilishi tashkilot mansabdor shaxslarining qonun xujjatlarida belgilangan javobgarligiga olib kelishligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

7. Muhtojlar uchun zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlari ishga joylashtirish tashkilotlar tomonidan tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi yo'llanmasi bo'yicha yoki mustaqil ravishda amalga oshirilishi inobatga olinsin.

8. Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash masalalari bo'yicha tuman hokimlarining qarorlari bajarilishi ustidan nazorat qilish hamda besh kun muddatda ish beruvchi tashkilot rahbarlari e'tiboriga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

9. Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (L.Rahmonov) tuman ishchi guruhiga:

- yil yakuniga qadar - ish beruvchilar tomonidan ish o'rinlarini zaxiraga qo'yilganligi to'g'risida ma'lumotni;

- har oyning 10 sanasiga qadar - ish beruvchilar tomonidan muhtojlarni ishga qabul qilinishi bo'yicha ma'lumotni hamda mazkur Qarorni bajarmagan ish beruvchi tashkilot mansabdor shaxslariga jarima solinganligi to'g'risida

umumlashtirilgan axborotlarni yuborish vazifasi yuklatilsin;

10. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrug‘iga (2019 yil 31-mart ro‘yxat raqami №3163) muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rnidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga rejadan ortiq qabul qilingan har bir hodim uchun o‘n ikki oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin.

11. Belgilansinki, ushbu Qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abdurahimov zimmasiga yuklatilsin.

**Farg'ona tuman hokimi**



**Tadjiyevich I. X.**

Farg‘ona tuman hokimining  
2022 yil 2 noyabrdagi  
336-11-163-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash hamda ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha ishchi gurux

### **T A R K I B I**

1. O.Abdurahimov – Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari –ishchi gurux raisi
2. N.Sotvoldiyeva – Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktor o‘rinbosari, ishga joylashtirish va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i – ishchi gurux kotibi
3. I.Gafurov – Tuman hokimi o‘rinbosari, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i – ishchi gurux a‘zosi
4. B.Axmadjonov –Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i – ishchi gurux a‘zosi
5. G‘.Ortiqov – Tuman halq ta’limi bo‘limi boshlig‘i – ishchi gurux a‘zosi
6. G.Karimova – Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘i – ishchi gurux a‘zosi
7. I.Abdumalikov – Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i – ishchi gurux a‘zosi

Farg'ona tuman hokimining  
2022 yil 2 noyabrdagi  
336-11-163-Q/22-son qaroriga  
2-ilova

Farg'ona tumani Aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan tumandagi korxonalarda 2023-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilingan kvota ish joylari taqsimoti

T/R	Topshiriq belgilangan korxonasi nomi	Ularda ishlovchilar soni	Band qilingan ish o'rinlari soni		shu jumladan:							
			Jami	Shu jumladan, nogironlar uchun	14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-xunar maktablarini, kasb-xunar kollejlari hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo'lgan yoshlar "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatda bo'lganlar	Nogironlar uchun	Pensiya oldi yoshdagi shaxslar uchun	Jazoni o'tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tushdagi majburlov choralarini qo'llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun
1	Tuman tibbiyot birlashmasi	2370	166	71	9	66	4	71	3	7	2	4
2	"VODIL" viloyat silga qarshi kurashish sanatoriyesi	132	9	4	1	2	1	4	0	1	0	0
3	"SHOXIMARDON" viloyat pul'monologiya shifoxonasi	227	16	7	2	3	1	7	3			
4	Farg'ona Tumani Sanitariya-Epidemiologik Osoyishtalik Markazi	74	5	2	0	1	1	2	0	1	0	0
5	"FARG'ONA TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI" unitar korxonasi	219	15	7	2	3	2	7	0	1		
6	7-umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	5	2	1	1	1	2	0	0	0	0
7	3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	98	7	3	1	2	0	3	1			
8	№55 umumiy urta ta'lim maktabi	100	7	3	1	1	1	3	1	0	0	0
9	12-umumiy o'rta ta'lim maktabi	94	6	3	0	1	1	3	1	0	0	0
10	13-umumiy o'rta ta'lim maktabi	74	5	2	1	1		2	1			
11	51-umumiy o'rta ta'lim maktabi	84	6	3	1	1	0	3	1			
12	52-umumiy o'rta ta'lim maktabi	113	8	3	1	2	1	3	1			
13	14-umumiy o'rta ta'lim maktabi	118	8	4	1	2	1	4	0	0	0	0
14	19-umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	4	2	1	1	0	2				
15	15-umumiy o'rta ta'lim maktabi	122	8	4	1	1	1	4	1			
16	39-umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	5	2	1	1		2	1			
17	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	95	7	3	1	1	1	3	1			
18	11-umumiy o'rta ta'lim maktabi	85	6	3	1	1	1	3	0	0	0	0
19	10-umumiy o'rta ta'lim maktabi	87	6	3	1	1	1	3	0	0	0	0
20	9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	80	6	2	1	1	1	2	1			
21	Vodil obodonlashtirish bo'limi	256	18	8	2	1	1	8	1	2	2	1
22	53-umumiy o'rta ta'lim maktabi	81	6	2	1	1	1	2	1			

23	22-umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	5	2	1	1	1	2				
24	8-umumiy o'rta ta'lim maktabi	68	5	2	1	1	1	2				
25	30-umumiy o'rta ta'lim maktabi	70	5	2	1	1	1	2				
26	26-umumiy o'rta ta'lim maktabi	87	6	3	1	1	1	3				
27	16-umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	5	2	1	1	1	2				
28	45-umumiy o'rta ta'lim maktabi	58	4	2	1	1		2				
29	Irrigatsiya	93	6	2	0	1	1	2		1	1	
	<b>ЖАМИ</b>	<b>5 239</b>	<b>365</b>	<b>158</b>	<b>37</b>	<b>102</b>	<b>27</b>	<b>158</b>	<b>18</b>	<b>13</b>	<b>5</b>	<b>5</b>